



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th December, 2024

AHOLI ORASIDA YUQUMLI KASALLIKLARNING KELIB CHIQISHI VA TARQALISHI

Rajabova Sitora Zohid qizi,
Yusupova Dilnoza Ravshanovna,
Kushmatova Soxiba Muxtarovna

Samarqand Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi
o‘qituvchilari

Anatatsiya: Ushbu maqolada oxirgi yillarda aholi o’rtasida yuqumli kasalliklarning kelib chiqishi va tarqalishini kuchaytiruvchi omillar, yuqumli kasalliklarni tashxislashda keng qo’llanilayotgan zamonaviy serologik, molekulyargenetik, biologik usullarning ahamiyati tog’risida ma’lumotlar kengroq yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Yuqumli kasalliklar, bakteriyalar, viruslar, tif, taratif, dizenteriya, difteriya.

FACTORS INCREASING THE RISK OF THE ORIGIN AND SPREAD OF INFECTIOUS DISEASES AMONG THE POPULATION

Abstract: In recent years, the factors that increase the origin and spread of infectious diseases among the population, as well as the importance of modern serological, molecular genetic, and biological methods, which are widely used in the diagnosis of infectious diseases, are more widely covered in this article.

Keywords: Infectious diseases, bacteria, viruses, typhus, dysentery, diphtheria.

Bugungi murakkab sharoitda, yurtimizda boshlangan keng qamrovli islohotlar, yangi O’zbekistonni barpo etish sari tashlayotgan dadil qadamlarimizning bardavom bo’lishini ta’minlash eng asosiy vazifamiz bo’lishi shart. Global inqiroz sharoitida iqtisodiy va siyosiy barqarorlikni ta’minlash, joylardagi mavjud muammolarni manzilli hal etish, ko’makka muhtoj yurtdoshlarimizni qo’llab-quvvatlash, yoshlarimizning orzu-umidlarini ro’yobga chiqarishdarkor.



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th December, 2024

Odamlarda uchraydigan ko‘pchilik kasalliklar yuqumli (infektsion) hisoblanadi. Ularning kelib chiqishi kishi organizmiga tirik kasallik qo‘zg‘atuvchilar kirishi va ma’lum shart-sharoitlarda ko‘payishi, hamda tashqi muhitga qaytib chiqishi bilan bog‘liq. Natijada kasallangan odam kasallik mikrobi (qo‘zg‘atuvchisi)ni boshqalarga tarqatuvchi-kasallik manbaiga aylanadi. Yuqumli kasalliklarni ko‘zga ko‘rinmaydigan o‘ta kichik tirik mavjudotlar, ya’ni viruslar keltirib chiqaradi. Ular juda oddiy tuzilgan bo‘lishiga qaramasdan boshqa tirik organizmlar kabi nafas oladi, oziqlanadi va ko‘payadi. Yuqumli kasalliklar qo‘zg‘atuvchilarining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shuki ular organizmga tushib ko‘payganda o‘zlaridan toksin (zahar) ajratib chiqaradi va to‘qimalar xujayralarining faoliyatini buzadi.

Yuqumli kasalliklar JSST ma’lumotiga ko‘ra barcha bolalar kasalliklari ichida 90% tashkil qilib, 0-14 yoshgacha bo’lgan bolalar o’limi sabablari ichida 4 o’rinni egallaydi. Tif, taratif, dizenteriya, difteriya kabi yuqumli kasalliklar shifoxona ichi va tashqi infeksiyalari shartli patagen bakteriyalar kabi qo‘zg‘atuvchilar keltirib chiqadigan infeksiyalarning inson uchun ahamiyati katta. O‘zbekiston Respublikasining iqlimi va jo`g`rofiy xususiyatlari, shuningdek, xalq xo`jaligi tarmoqlari infrastrukturasi, ayrim mintaqalarda yuqumli, (ayniqsa o‘ta xavfli) kasalliklarning epidemik o`choqlari borligi, suv zaxiralarining kamayib ketishi, ifloslanishi mamlakatning ba’zi hududlarida qayta tiklanmaydigan haloqatlar yuzaga kelishi, yoki boshqa tur shikast (zilzila, suv toshkinlari, sel oqimlari, ko`chkilar va texnogen xususiyatli ofatlar), xususiy sanoat korxonalarining sanitar epidemiologik holatga rioya etmasliklari yuqumli kasalliklar o`choqlarini murakkablashib ketishiga sabab bo`ladi.

Infektion kasalliklar — patogen mikroorganizmlar (bakteriyalar, viruslar, eng sodda jonivorlar va h. k.)ning kishi, hayvon va o‘simlik organizmiga kirib ko‘payib, zararli ta’sir ko‘rsatishi natijasida kelib chiqadigan kasalliklar. Bemor organizmida shu kasallikni vujudga keltiruvchi maxsus mikrob borligi va kasallikning odamdan odamga yuqishi mumkinligi infektion kasalliklarning asosiy belgilaridir.

Yuqumli kasalliklar paydo bo`lishi va tarqalishi xavfini kuchaytiradigan omillar:

1. Aholi zichligi. Aholiniqgiz zich yashashi oqibatida bir-biriga juda yaqin bog`lanish mavjudligi zarrachalari havodan o`tadigan infeksiyalar paydo bo`lishi va tarqalishi



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th December, 2024

xavfini oshiradi. Mavjud sanitariya xizmatlari aholi zichligi to`satdan ortib ketishiga ko`pincha bardosh berolmay qoladi.

2. Aholining ko`chib yurishi. Aholining eng xavfsiz zonaga o`tishi ko`chirilgan aholi o`rtasida ham, mahalliy aholi o`rtasida ham, infeksiya tarqalishiga olib kelishi mumkin.

3. Mavjud kommunikatsiya tarmoqlarining ishdan chiqishi. Ofat vaqtida mavjud kommunikatsiya tizimlari ko`pincha shikastlanib qoladi. Suv ta'minoti, kanalizatsiya, elektr ta'minoti tizimlari eng nozik tizimlari hisoblanadi.

4. Jamiyat sog`liqni saqlash dasturlari bajarilishining to`xtab qolishi. ofat sodir bo`lgandan keyin, odatda, xodimlar va ijtimoy jamg`armalar ofat oqibatlarini bartaraf etishga kirishadilar. Biroq, belgilangan rejaga muvofiq jamiyatni sog`lomlashtirish Davlat dasturi qo`llab quvvatlab turilmas ekan, etarli muxofaza qilinmagan aholi o`rtasida yuqumli kasalliklarning tarqalish rejasi tobora ortib ketishi mumkin.

Infeksiyalar tarqatadigan eng tipik manba - bu ichimlik suv, ovqat maxsulotlari, ho`l meva va sabzavotdir. Infeksiya tashuvchilar - pashsha, chivin, burgalar kasallik tarqatishda juda katta rol o`ynaydi. Kemiruvchilar (kalamush va sichqonlar) ham yuqumli kasalliklar tarqatish manbalari hisoblanadi. Ofat yuz berishi natijasida aholining ko`chirilishi qaysi bir joyda odamlar haddan tashqari ko`payib ketishi, suv, ovqat etishmay qolishi hamda hayot kechirishi sharoiti yomonlashib ketishiga olib kelishi mumkin. Ilgarilari bunday vaziyatlar oqibatida kasallanish va o`lim darajasi ortib, odamlar sihat-salomatligiga salbiy ta'sir ko`rsatadigan asosiy muammolar ko`ndalang bo`lar edi. Suv havzalarini sanitary muhofazasi o`ta muhim muammolardan biri hisoblanadi, uni hal etish aholini sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlash bilan birga ichak infeksiyalarini oldini olish darajasi ma'lum darajada bog`liq.

Shunday qilib, biz ko`rib chiqayotgan masala hozirgi vaqtida dolzarb hisoblanadi, chunki taxmin qilinayotgan epidemiologik haloqat o`choqlarida aholining ehtimol bo`lgan sanitariya talofatlari haqida oldindan axborot olmay turib, yuqumli kasalliklar o`chog`idagi tibbiy-sanitariya oqibatlarini tugatish uchun zarur bo`lgan fuqaro muxofazasi tibbiy xizmati kuch va vositalarini oldindan rejalashtirishning iloji bo`lmaydi. Favqulodda vaziyat o`choglarida har xil epidemiyalar turlari sodir



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th December, 2024

bo`lishi (aralash-quralash o`choq yuzaga kelishi) va ommaviy sanitariya talofatlari ehtimoli borligi munosabati bilan tibbiy yordam ko`rsatishga juda ko`p tibbiy tuzilmalar jalb qilinishi, shikastlanganlarni yotqizish va davolash uchun ko`pgina tibbiyot muassasalari jalb qilinadi. Hozirgi vaqtida favqulodda vaziyatning tibbiy-sanitariya oqibatlarini muvaffaqiyat bilan tugatish uchun fuqaro muxofazasi tibbiy xizmati tizimida quyidagi yordamchi bo`linmalar mavjud:

Sanitariya drujinalari (SD):

1. Ixtisoslashgan shoshilinch tibbiy yordam (IShTYo)
2. Infektsion brigada (IShTYoIB)lari:
3. Sanitariya-profilaktika brigadasi (SPB):
4. Epidemiyaga qarshi ixtisoslashtirilgan brigada (EKIB).

Brigadalar doimiy ravishda (favqulodda vaziyatgacha, favqulodda vaziyatlar vaqtida) o`z faoliyatlarini uzluksiz davom ettirib boradilar, lekin ularning bo`linmalari yuqori darajada shay tursagina, kerakli buyumlar, transport bilan ta'minlangan bo`lsagina, shaxsiy tarkiblari esa maxsus tayyorgarligi yaxshi va har qanday sharoitda ishlay olishi yaxshi sharoitga quylgan bo`lsagina favqulodda vaziyatlar sharoitida jabrlangan aholini tibbiy ta'minlash vazifalari muvaffaqiyatli bajarilishi mumkin.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, har qanday yuqumli kasallik avj olmasidan uni oldini olishimiz kerak chunki, inson hayotiga va sog'ligiga, atrof muhitgamamlakatimiz taraqqiyotiga jiddiy xavf tug'diradi. Natijada insonlarning turmush tarzi mamlakatning iqisodiyoti rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Shuning uchun avvalo har bir inson shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilmog'i darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmedova M.D., Boboxo'jayev S.N. // O'zbekiston tibbiyot jurnali 2005 № 1:67-68.
2. Ахмедова М.Д., Нарзиев И.Л . //Инфекция, иммунитет и фармакология. Ташкент, 2004.-№2.71-75.
3. Ахмедова М.Д ., Муминов У.А. //Инфекция, иммунитет и фармакология. Ташкент, 2004.-№2.31-33.



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th December, 2024

4. Ahmedova M.J va boshqalar. Yuqumli kasalliklar va bemorlar parvarishi. Toshkent, 2002.
5. Boboxo'jaev S.N., Do'stjonov B.O. Qorin tifi-paratif kasalliklari va bu xastaliklarda parhez masalalari. Toshkent, 1997.
6. Valiev A.G. va boshqalar. Polirezistent shtammlar chaqirgan salmonellyoyz xastaligida erta yoshdagi bolalarda jadal davolash usullari . Toshkent, 2003.
7. Daminov T.A., Azimov Sh.T., Rahmatullayev M.A. // O'zbekiston tibbiyot jurnali. 2005, № 1: 34-36.